MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT AXBOROTLASHTIRISH

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

ГИБРИДНЫЙ МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ПРОГРАММНО-АППАРАТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ ИММЕРСИВНОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ БАЗЫ ЗНАНИЙ И МНОГОКРИТЕРИАЛЬНОЙ ОПТИМИЗАЦИИ 9
Хасанмансур Тимурович Ядгаров, Ботир Болтаевич Элов
AGRAR SOHANI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT QO‘LLAB-QUVVATLASHI VA BANKDAN TASHQARI VOSITALARNING O‘RNI 16
Nasriddin Fattiyevich Buronov
SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI 22
Akhmadaliyeva Nikhola
A HYBRID ADAPTIVE LARGE NEIGHBOURHOOD SEARCH ALGORITHM FOR ROUTING LESS-THAN-TRUCKLOAD PICKUPS WITH TIME WINDOWS AND TWO-DIMENSIONAL CAPACITY 27
Hamzayev Ulug‘bek Habibulla o‘g‘li
DIGITAL ECONOMY AND ECONOMIC GROWTH: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES IN THE MODERN ERA 36
Shoymardonov Axrorjon Azamat ugli
SIRDARYO VILOYATIDA OILAVIY MAKTABGACHA TA’LIM XIZMATLARIGA TALAB VA MARKETING SAMARADORLIGINI KO‘P MEZONLI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 42
Mamanazarova Sohiba Abdug‘aniyevna
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO‘LOVGA QOBILLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 47
Askarov Ziyodulla Usmanaliyevich
RESURSLARI CHEKLANGAN VIDEOKUZATUV TIZIMLARIDA ANOMAL XATTI-HARAKATLARNI ANIQLASHNING NEYRO-MODEL ALGORITMLARI 53
Xolmatov Azizbek Tolibjonovich
ПОЭТАПНАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ФОРМАЛИЗАЦИЯ САМОЗАНЯТОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ РЕГИСТРАЦИИ ДО СОЗДАНИЯ ОФИЦИАЛЬНЫХ НАЁМНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ 57
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович
TIJORAT BANKLARINING YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI 68
Butanova Dilnoza Rustamovna
ORQA TOMONI SUV BILAN SOVITILADIGAN QUYOSH PANELINING ISSIQLIK HOLATINI ANALITIK VA SONLI USULLARDA BAHOLASH 76
Sadullayev Nasillo, Nematov Shuxrat, Soliyeva Z.N.
ANOR YETISHTIRISH VA SOTISHNI IQTISODIY BAHOLASH 83
Irgashev Abbos Jumanazarovich
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH VA UNING NATIJADORLIGINI KO‘P MEZONLI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 89
Hamroyev Halim, Toyirova Hamida
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINI REJALASHTIRISHDA SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 97
Mamadaliyev Akmaljon G‘ayrataliyevich
TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARIDAGI RISKLARNI BAHOLASH VA RISKKA ASOSLANGAN NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH 102
Muxsinov Nabijon Toxirovich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING DOLZARB MASALALARI 107
Ergashev Iskandar Urunovich

HYBRID CLUSTERING AND GENERALIZED ASSESSMENT FOR INTELLIGENT ANALYSIS OF MAHALLA ACTIVITY INDICATORS 112
Allamurodov Norbobo Tursun o‘g‘li, Hamzayev Ulug‘bek Habibulla o‘g‘li
DAVLAT ISHTIROKIDAGI TRANSPORT KORXONALARIDA KORPORATIV MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING INVESTITSION QARORLARGA TA’SIRI 121
Raxmatov Ziyodullo Nosirovich
HUDUDLARNING ELEKTRON TIJORAT SALOHIYATINI BAHOLASHNING INNOVATSION METODOLOGIYASI 128
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH 133
Po‘latov Sardor Akmal o‘g‘li
TUPROQQA ISHLOV BERADIGAN MASHINALAR ISH ORGANLARI ISH RESURSINI OSHIRISHDA MAHALLIY XOMASHYOLARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI VA MATERIAL TARKIBINI ISHLAB CHIQISH 142
Qosimov Karimjon, Qosimova Malohatxon
TERMIZ SHAROITIDA FOTOELEKTRIK TIZIMLARNING FIZIK PARAMETRLARINI TAQQOSLASH 150
Boysori Yuldoshov, Jahongir Eshonqulov
RAQAMLI PLATFORMALARNING O‘ZBEKISTON KICHIK BIZNESINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISHDAGI ROLI 157
Paraxatova Gulzira Amanbay qizi
YASHIL TRANSFORMATSIYADA INSON KAPITALI VA YASHIL KO‘NIKMALAR: ENERGIYA VA RESURSLAR SAMARADORLIGIGA TA’SIR MEXANIZMI 164
Aripov Oybek Abdullaevich
O‘ZBEKISTONDA NAQD PULSIZ TO‘LOVLAR TIZIMINING RIVOJLANISHI: HOLATI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI 171
Ziyodullayev Dilshod, Sharapova Mashxura
AHOLI DAROMADLARI VA XARAJATLARI DINAMIKASINING STATISTIK BAHOLANISHI VA TARKIBIY SILJISHLAR TAHLILI 177
So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna
ИЗМЕНЕНИЕ СТРУКТУРЫ МЕТАЛЛОВ ПРИ ИХ МАГНИТНОЙ ОБРАБОТКЕ 181
С.М. Хасанов
ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ТРАНСФОРМАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ ЭФФЕКТИВНОСТИ 188
Сафаров Жавохир Исмоилович
O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: OCHIQ STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDAGI TAHLIL 195
Berdimbetova Amina
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH: MUAMMOLI KREDITLAR DINAMIKASI VA NPL ULUSHINING OMILLI DEKOMPOZITSIYASI 201
Hakimova Nargiza Abdukarimovna
O‘ZBEKISTONDA MOL-MULKNI MAJBURIY SUG‘URTALASH TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY ZARURATI VA MOLIYAVIY SAMARADORLIGI 207
Nozimov Eldor Anvarovich, Raxmatullayev Muxammadjon Baxodirovich
SUG‘URTA KOMPANIYALARIDA IJTIMOIY TARMOQLAR VA INTERNET REKLAMASI ORQALI MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 212
Nozimov Eldor Anvarovich, Qo‘ziyev Nurbek Muzaffar o‘g‘li
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YER SOLIG‘I MA’MURIYATCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA FISKAL SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 217
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLARARO TARKIBIY TRANSFORMATSIYALAR VA IQTISODIY O‘SISH SIFATI 221
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich
ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI MONITORINGIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI BUZILISHINI ANIQLASH USULINING BIRINCHI VA IKKINCHI TUR XATOLIKLARINI TAJRIBAVIY BAHOLASH 230
Gafurov Sharifjon, G‘aniyev Salim
TARMOQLAR KESIMIDA RESURSLARNI TAQSIMLASHDA SUN’IY INTELLEKT QARORLARINI BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TANLAB VERIFIKATSIYALASH VA AUDIT QILISH ORQALI BOSHQARISH MODELI 239
Z.S. Nazarova, N.M. Axmedov
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 247
Насиров Дилшод, Тухтаев Голибджон, Худайберганов Диёрбек
MINTAQADA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI INVESTITSION-INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) 253
Sultonov Sirojiddin Normurodovich
ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЁТА ДОХОДОВ И РАСХОДОВ КАК ОСНОВА ОЦЕНКИ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЯ 260
Бабаханова Нилуфар Усманджановна
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕЛКОСЕРИЙНОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ОСНОВЕ ИМИТАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ГИБКИХ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ СИСТЕМ 266
Сирожидинов Шамилидин Икромжонович
MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 274
Xolmatova Dilafruzxon Maxsudjon qizi
BANKLARINING AKTIVLARI VA MOLIYAVIY RESURSLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI 279
Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o‘g‘li
SANOAT TURIZMI XIZMATLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 285
A. P. Maxmudova, G‘aniyeva M.
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SHAXSIY SUG‘URTA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 290
Jonuzoqov Ozod Shokir o‘g‘li
СТРОИТЕЛЬНАЯ ОТРАСЛЬ УЗБЕКИСТАНА КАК ДРАЙВЕР ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ЗАНЯТОСТИ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ ТРУДОВОЙ МОБИЛЬНОСТИ 298
Шакаров Зафар Гаффорович
HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA TALABNI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH 305
Ravshanova Gulchexra Ravshanovna
MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA HUNARMANDCHILIK VA MILLIY XIZMATLAR ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI 313
Ibodillayev Habibulla Abdullayevich
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 317
Saidova Dilfuza Ergashovna
FERMER XO‘JALIKLARI DARAJASIDA YASHIL O‘SISHNI BAHOLASH USULLARINI TANLASH MEZONLARI: SAMARADORLIK, EKOLOGIK BOSIM VA AJRALISH TAHLILINING METODIK CHEGARALARI 322
Choriyev Maxmayoqub Muxammad o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA TURISTIK KLASTERLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 330
Pulotov Azimjon Avazxonovich
KREDITLASH FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH 337
Norbayev G‘olibjon Toxirovich

TURIZM SOHASIDAGI XALQARO REYTINGLARDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNINI YAXSHILASH ORQALI TURISTIK KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISH

Pulotov Azimjon Avazxonovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi
E-mail: azimjonpulot@gmail.com
ORCID: 0009-0009-1189-8454

Annotatsiya. Turizm sohasidagi xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning mavqeyini yaxshilash orqali turistik klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Mamlakatning xalqaro turizm reytinglaridagi natijalarini yaxshilashda turistik infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida turistik klasterlarni rivojlantirish va O‘zbekistonning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro turizm reytinglari, turistik klasterlar, turistik salohiyat, raqobatbardoshlik, turistik infratuzilma, turistik xizmatlar, raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, hududiy rivojlanish, xalqaro tajriba.

Аннотация. Рассмотрены приоритетные направления развития туристических кластеров посредством укрепления позиций Узбекистана в международных туристических рейтингах. Проанализированы вопросы совершенствования туристической инфраструктуры, повышения качества услуг, внедрения цифровых технологий, развития государственно-частного партнёрства и эффективного использования туристического потенциала регионов в целях улучшения показателей страны в международных туристических рейтингах. На основе международного опыта разработаны предложения и рекомендации по развитию туристических кластеров и повышению конкурентоспособности Узбекистана на мировом туристическом рынке.

Ключевые слова: международные туристические рейтинги, туристические кластеры, туристический потенциал, конкурентоспособность, туристическая инфраструктура, туристические услуги, цифровые технологии, государственно-частное партнёрство, региональное развитие, международный опыт.

Abstract. The priority areas for developing tourism clusters through strengthening Uzbekistan’s position in international tourism rankings are examined. The study analyzes the improvement of tourism infrastructure, enhancement of service quality, introduction of digital technologies, development of public-private partnerships, and effective utilization of regional tourism potential to improve the country’s performance in international tourism rankings. Based on international experience, proposals and recommendations have been developed to promote tourism cluster development and enhance Uzbekistan’s competitiveness in the global tourism market.

Keywords: international tourism rankings, tourism clusters, tourism potential, competitiveness, tourism infrastructure, tourism services, digital technologies, public-private partnership, regional development, international experience.

KIRISH

Turistik klasterlar faoliyatining samaradorligi yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan turli reytinglar va indekslarning baholash natijalari asosida aniqlanmoqda. O‘zbekistonda 2017-yildan so‘ng xalqaro iqtisodiy reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-sonli[1] qarori «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-sonli qarori: https://www.lex.uz/docs/-4215422

vazifasi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi «Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-246-sonli[2] qaroriga muvofiq, ustuvor xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikatorlari doirasida muntazam ravishda nisbatan past baholanib kelinayotgan soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish rejasi tasdiqlangan.

Ushbu yo‘nalishlarda turizm sohasiga oid alohida reytinglar tanlab olinmagan bo‘lsa-da, subindekslarda turizmga daxldor yo‘nalishlar mavjudligini qayd etish mumkin. Xususan, «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi» (FDI Regulatory Restrictiveness Index)ning 15-subindeksi «Mehmonxona va restoranlar» hamda Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index)ning 7-subindeksi «Ijodiy mahsulotlar» deb nomlanadi. Unda kreativ tusdagi tovarlar eksporti, madaniy va ijodiy xizmatlar eksporti, ko‘ngilochar va media mahsulotlar bozori kabi yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, mutaxassislar tomonidan ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha hisobotlar taqdim etib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirda «mamlakat raqobatbardoshligini baholashning zamonaviy yondashuvlari, muayyan davlatning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda qo‘llaniladigan usullar, asosan, ko‘rsatkichlar soni, tarkibi va ularning muhimlik koeffitsiyenti bilan farqlanadi»[3].

Turizm sohasidagi reytinglardan dastlab Jahon iqtisodiy forumining (World Economic Forum — WEF) Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisobotini (Travel and Tourism Competitiveness Report) tahlil qilish orqali turistik klasterlarni rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish lozim.

Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisoboti birinchi marta 2007-yilda Jahon iqtisodiy forumi tomonidan chop etilgan[4]. 2007-yilgi hisobot 124 ta yirik va rivojlanayotgan iqtisodiyotni qamrab olgan. 2008-yilgi hisobot 130 ta mamlakatni qamrab olgan[5], 2009-yilgi hisobot 133 ta davlatni[6] 2011-yilgi hisobot esa 139 ta davlatni qamrab olgan. Shundan so‘ng ushbu baholash natijalari 2015-yilda, 2017-yilda[7] va 2019-yilda (140 ta davlat aks etgan)[8] chop etilib, ularda indikatorlar asosida davlatlarning turizm bo‘yicha raqobatbardoshligi keltirilgan. Indeks mamlakatning turistik yo‘nalish sifatidagi jozibadorligini emas, balki alohida mamlakatlarning sayohat va turizm sanoatida biznesni rivojlantirish uchun jozibador sharoitlarni shakllantiruvchi omillarni o‘lchaydi. Hisobotda sayohat va turizm raqobatbardoshligi indeksi bo‘yicha tanlangan davlatlar reytingi tuziladi hamda har bir alohida subindeks bo‘yicha muayyan mamlakatning ko‘rsatkichlari 1 dan 6 gacha baholanadi. Dastlabki indeks hisobotlari uchta asosiy subindeksdan iborat bo‘lganini ko‘rish mumkin: 1) me’yoriy-huquqiy baza; 2) biznes muhiti va infratuzilma; 3) inson, madaniy va tabiiy resurslar. Hisobot, shuningdek, baholangan har bir davlat uchun alohida davlat profilini o‘z ichiga olgan. Unda Sayohat va turizm raqobatbardoshligi indeksini (TTCI) baholash uchun olingan har bir ball, Jahon bankining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari, Jahon turizm tashkiloti hamda jahon sayohati bo‘yicha mamlakatlar ko‘rsatkichlariga oid qo‘shimcha ma’lumotlar mavjud bo‘lgan. Sayohat va turizm raqobatbardoshligi haqidagi so‘nggi hisobot 2019-yilda chop etilgan[9]. Ushbu hisobotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda subindekslar sonining yildan yilga ortib borganini kuzatish mumkin. Jahon iqtisodiy forumi 2021-yildan boshlab Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisobotining yangicha ko‘rinishi sifatida, mazkur indeksning davomi bo‘lgan Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksini (Travel and Tourism Development Index — TTDI) e’lon qilishni boshlagan[10].

Jahon iqtisodiy forumining 2021-yilgi hisobotida beshta subindeks ko‘rsatilgan: 1) turistik klasterlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarning yaratilganligi; 2) sayohat va turizm siyosati hamda sohani rivojlantirishda ruxsat berish shartlari; 3) infratuzilmaning rivojlanganligi; 4) sayohat va turizmga bo‘lgan talabni shakllantiruvchi omillarning rivojlanganligi; 5) sayohat va turizmning barqarorligi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi «Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-246-sonli qarori: https://lex.uz/uz/docs/-6026692

3 Морозова Н.С. Теория и методология формирования и развития конкуренции в туризме. 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Сочи – 2012. 46 с.

4 Jennifer Blanke and Thea Chiesa, ed. (2007). “The Travel & Tourism Competitiveness Report 2007” (PDF). World Economic Forum, Geneva, Switzerland. Retrieved 2009-03-04.

5 Jennifer Blanke and Thea Chiesa, ed. (2008). “Travel & Tourism Competitiveness Report 2008” (PDF). World Economic Forum, Geneva, Switzerland. Retrieved 2009-03-04.

6 Jennifer Blanke and Thea Chiesa, ed. (2019). “Travel & Tourism Competitiveness Report 2009”. World Economic Forum, Geneva, Switzerland. Retrieved 2019-03-04.

7 The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017” (PDF). World Economic Forum. April 2017.

8 The Travel & Tourism Competitiveness Report 2019”. World Economic Forum. September 2019 521

9 https://en.wikipedia.org/wiki/Travel_and_Tourism_Competitiveness_Report

10 “Travel & Tourism Development Index 2021 - Rebuilding for a Sustainable and Resilient Future” (PDF). World Economic Forum. May 2022.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekistonda turistik klasterlarni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini o‘rganish uchun ikkilamchi ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Jahon iqtisodiy forumining Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hamda Sayohat va turizmni rivojlantirish indekslariga oid hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, guruhlash, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Xususan, O‘zbekistonning xalqaro turizm reytinglaridagi o‘rni va indeks ko‘rsatkichlarining 2019–2024-yillardagi dinamikasi o‘zaro taqqoslandi. Shuningdek, xalqaro reytinglarning tarkibiy indikatorlari turistik klasterlarni rivojlantirish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Hududlarning turistik salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari, raqamli xizmatlar va boshqaruv mexanizmlariga oid ma’lumotlar guruhlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, turistik klasterlar faoliyatini baholash ko‘rsatkichlarini shakllantirishda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar, Zomin va Chorvoq kabi tabiiy hududlar, Farg‘ona vodiysining hunarmandchilik an’analari hamda Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos madaniy va tabiiy merosi asosida turistik klasterlarning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish mumkin. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun turistik obyektlarni yagona marshrutlar, sifatli xizmatlar, qulay transport va raqamli axborot tizimlari bilan bog‘lash talab etiladi.

O‘zbekiston turizm sohasining xalqaro reytinglardagi natijalarini yaxshilash ham aynan shu jarayon bilan bog‘liq. Samarqandda tarixiy obidalarning mavjudligi sayyohlarni jalb qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, aeroportdan shahar markaziga yetib kelish, mehmonxonaga joylashish, ekskursiya xizmatlaridan foydalanish, ovqatlanish, to‘lovlarni amalga oshirish va sayohat haqida ishonchli ma’lumot olish imkoniyatlari ham sayyohning umumiy taassurotiga ta’sir ko‘rsatadi. Turistik klasterlarni rivojlantirish orqali nafaqat hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, balki xalqaro reytinglarda baholanadigan bir qator ko‘rsatkichlarni ham yaxshilash mumkin.

Mazkur masalaning dolzarbligini Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e’lon qilingan Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi (Travel & Tourism Development Index — TTDI) natijalari ham tasdiqlaydi. 2024-yilgi hisobotda O‘zbekiston birinchi marta reytingga kiritilib, 119 ta iqtisodiyot orasida 78-o‘rinni egallagan. Mamlakatning indeks ko‘rsatkichi 3,68 ballni tashkil etgan. Shuningdek, 2019-yil uchun qayta hisoblangan natijada O‘zbekiston 94-o‘rinda, 2021-yil uchun esa 84-o‘rinda qayd etilgan. Demak, 2019–2024-yillarda mamlakatning reytingdagi o‘rni 16 pog‘onaga yaxshilangani kuzatilgan[11].

Bu natijani O‘zbekiston turizm sohasidagi islohotlar va investitsiyalar bilan bog‘liq ijobiy o‘zgarishlarning xalqaro baholashda aks etishi sifatida talqin qilish mumkin. Shu bilan birga, reytingdagi o‘rinni yaxshilash sayyohlar sonining ko‘payishi bilan bir qatorda, boshqa omillarga ham bog‘liq. Indeks mamlakatda biznes yuritish sharoitlari, xavfsizlik, kadrlar salohiyati, raqamli tayyorgarlik, transport va turistik infratuzilma, madaniy va tabiiy resurslardan foydalanish hamda barqarorlik kabi omillarni ham hisobga oladi[12].

O‘zbekiston uchun bu natijalarning asosiy ahamiyati shundaki, mamlakatning tarixiy-madaniy merosi va tabiiy boyliklari xalqaro bozorda raqobat ustunligini ta’minlash uchun muhim asos bo‘lib, ularni yuqori sifatli turistik mahsulotga aylantirish zarur. Samarqand, Buxoro va Xivadagi tarixiy yodgorliklar asosida turistik klasterlarni kompleks shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mehmonxonalar, transport, ekskursiya xizmatlari, ovqatlanish, hunarmandchilik, savdo va raqamli platformalar yagona tizimda ishlashi kerak.

O‘zbekistonda turistik oqimning o‘sishi bilan uning iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhim ahamiyatga ega. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda turizm maqsadida mamlakatga xorijiy fuqarolarning 11,68 millionta tashrifi qayd etilgan. Bu 2024-yilga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu ko‘rsatkich tashriflar sonini anglatadi va takroriy kirishlar ham alohida hisoblanishi mumkin. Shu sababli uni noyob sayyohlar soni yoki har bir sayyohning mamlakatda sarflagan mablag‘i bilan tenglashtirishda ushbu xususiyatni hisobga olish zarur[13].

11 World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024. Geneva: World Economic Forum, 2024. Расмий ҳисобот.

12 World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024: Appendix A — Index Methodology. Расмий методология

13 Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Socio-Economic Situation of the Republic of Uzbekistan: Tourist Flows, January–December 2025. Расмий статистик ҳисобот

Turistik klasterlarni rivojlantirishda tashriflar sonini oshirish bilan bir qatorda, sayyohlarning mamlakatda qolish muddatini uzaytirish, mahalliy xizmatlardan foydalanishini ko‘paytirish, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish va turizm daromadlarining mahalliy iqtisodiyotda qolishini ta’minlashga ham e’tibor qaratish lozim. Bu yondashuv xalqaro reytinglarda baholanadigan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e’lon qilingan 2024-yilgi Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi (Travel & Tourism Development Index — TTDI) hisoboti avvalgi yillar natijalarini yangilangan metodologiya asosida qayta hisoblagan. Shuning uchun 2019, 2021 va 2024-yillardagi o‘rinlarni taqqoslashda aynan 2024-yilgi hisobotda keltirilgan qayta hisoblangan ma’lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlangan 2026-yilgi yangi Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksi (Travel & Tourism Development Index — TTDI) hisoboti ham 2026-yil 25-sentabrda e’lon qilingan. Ilmiy ishda eng so‘nggi natijalar keltiriladigan bo‘lsa, mazkur hisobotdagi O‘zbekistonga oid ma’lumotlar ham alohida tekshirilishi lozim[14].

Turistik klasterlarni xalqaro reytinglardagi natijalarni yaxshilash vositasi sifatida ko‘rib chiqishda ikki jihatni farqlash kerak:

Birinchisi — reyting mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun mavjud shart-sharoitlarni baholaydi.

Ikkinchisi — klaster ushbu shart-sharoitlarni muayyan hududda amaliy natijaga aylantirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda transport infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha milliy dastur mamlakat miqyosidagi ko‘rsatkichlarga ta’sir qilishi mumkin. Turistik klaster doirasida aeroport, temir yo‘l vokzali, mehmonxonalar va tarixiy obyektlar o‘rtasida qulay transport aloqasini yo‘lga qo‘yish sayyohlar uchun aniq amaliy qulayliklar yaratadi. Xuddi shuningdek, raqamlashtirish bo‘yicha umumiy islohotlar bilan bir qatorda, klaster hududida yagona bronlash, elektron to‘lov, audiogid, marshrut xaritasi va shikoyatlarni qabul qilish tizimlarini joriy etish xizmatlar sifatini bevosita yaxshilashi mumkin.

Shu bois O‘zbekistonda turistik klasterlarni rivojlantirishni alohida obyektlar qurish yoki turistik marshrutlar sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, xalqaro reytinglarda aks etadigan ko‘rsatkichlar bilan bog‘langan boshqaruv mexanizmi asosida tashkil etish zarur. Bunda har bir klaster uchun aniq maqsadli ko‘rsatkichlar, mas’ul tashkilotlar, amalga oshirish muddatlari va natijalarni baholash tartibi belgilanishi kerak.

Quyidagi jadvalda xalqaro reytinglarda baholanadigan yo‘nalishlar, O‘zbekistondagi mavjud imkoniyatlar va ularni turistik klasterlar orqali rivojlantirish bo‘yicha takliflar o‘zaro bog‘langan holda keltirilgan. Takliflar ilmiy-amaliy tavsiyalar hisoblanadi. Ulardagi maqsadli ko‘rsatkichlar rasmiy statistika yoki tasdiqlangan davlat dasturlarida belgilangan natijalar sifatida emas, balki taklif etilayotgan baholash mezonlari sifatida qaraladi.

1-jadval

Xalqaro reytinglar yo‘nalishlari asosida O‘zbekistonda turistik klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar[15]

№	Xalqaro reytingdagi yo‘nalish	O‘zbekistonda rivojlantirish imkoniyati	**Turistik klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar**	**Natijani baholash ko‘rsatkichlari**
1	Turistik xizmatlar va infratuzilma	Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda turistik obyektlar jamlangan	Tarixiy obyektlar, mehmonxonalar, restoranlar, transport va ekskursiya xizmatlarini yagona klaster tizimiga birlashtirish	Turistik xizmatlardan qoniqish darajasi; xizmat ko‘rsatish obyektlari soni; sayyohning o‘rtacha qolish muddati
2	Havo va quruqlik transporti	Asosiy turistik shaharlar o‘rtasida sayohat marshrutlarini kengaytirish imkoniyati	Aeroport, temir yo‘l vokzali va turistik obyektlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan transport xizmatlarini tashkil etish	Turistik obyektlarga yetib borish vaqti; transport xizmatlaridan foydalanish darajasi
3	Raqamli tayyorgarlik va innovatsiyalar	Turistik axborotni raqamli shaklda taqdim etish imkoniyati	Yagona raqamli platforma, elektron bronlash, ko‘p tilli audiogid, raqamli xarita va klasterlar monitoringi tizimini joriy etish	Raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar ulushi; elektron bronlashlar soni; ma’lumotlarning to‘liqligi
4	Madaniy resurslardan foydalanish	Buyuk Ipak yo‘li merosi, tarixiy shaharlar, muzeylar va hunarmandchilik	Muzeylar, tarixiy obidalar, mahalliy ustalar va milliy taomlar bilan bog‘langan kompleks turistik mahsulotlar yaratish	Madaniy obyektlarga tashriflar; mahalliy xizmatlardan tushum; turistik mahsulotlar soni

14 World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2026. Geneva: World Economic Forum, 2026. Расмий ҳисобот

15 Manba: muallif ishlanmasi

5	Tabiiy resurslar va ekologik barqarorlik	Zomin, Chorvoq, tog‘li hududlar, Orolbo‘yi va Qoraqalpog‘iston	Ekologik, tog‘, qishloq va etnoturizm klasterlarini rivojlantirish; tabiiy resurslardan foydalanish me’yorlarini belgilash	Ekologik talablarga rioya etish; chiqindilarni boshqarish; mahalliy aholi bandligi
6	Biznes muhiti va investitsiyalar	Kichik mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va xususiy turistik xizmatlar	Klaster ishtirokchilari uchun hamkorlik platformasi, investitsiya loyihalari portfeli va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini shakllantirish	Yangi investitsiya loyihalari; xususiy investitsiyalar hajmi; yangi korxonalar va ish o‘rinlari
7	Kadrlar salohiyati va mehnat bozori	Turizm, mehmondo‘stlik va gidlik xizmatlarida malakali kadrlarga talab	Oliy ta’lim muassasalari, kasbiy ta’lim tashkilotlari va biznes hamkorligida amaliy o‘quv dasturlarini tashkil etish	Malaka oshirgan xodimlar soni; xizmat sifati; ishga joylashgan bitiruvchilar ulushi
8	Xavfsizlik va xizmat sifati	Turistik obyektlarda xizmat ko‘rsatish standartlarini birxillashtirish imkoniyati	Klasterlarda yagona sifat standartlari, sayyohlarga tezkor yordam, shikoyatlarni ko‘rib chiqish va xavfsizlik monitoringini joriy etish	Shikoyatlarni hal qilish muddati; turistik xizmatlar sifati; xavfsizlik bilan bog‘liq hodisalar dinamikasi
9	Turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri	Hududlarda kichik biznes va aholi daromadlarini oshirish imkoniyati	Hunarmandlar, fermerlar, mahalliy tadbirkorlar va aholi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni klaster zanjiriga kiritish	Mahalliy aholi bandligi; mahalliy yetkazib beruvchilar ulushi; turizmdan olinadigan daromad
10	Turistik talabning barqarorligi	Mavsumiylikni kamaytirish va yangi turistik yo‘nalishlarni ochish imkoniyati	Kongress, gastronomik, ziyorat, qishloq va qishki turizm mahsulotlarini shakllantirish; hududlararo marshrutlarni bog‘lash	Mavsumlar bo‘yicha tashriflar taqsimoti; takroriy tashriflar; mavsumdan tashqari davrdagi bandlik

Izoh: Jadvaldagi baholash ko‘rsatkichlari klasterlar faoliyatini monitoring qilish uchun taklif etilgan. Ular TTDI rasmiy indikatorlarining aynan o‘zi emas, balki ular bilan bog‘liq mahalliy boshqaruv ko‘rsatkichlaridir.



10-rasm. O‘zbekistonda turistik klasterlarni hududlar bo‘yicha rivojlantirish modeli[16]

16 Manba: muallif ishlanmasi

Ushbu modelda milliy darajadagi boshqaruv organlari umumiy standartlar, ma'lumotlar almashinuvi va xalqaro hamkorlikni ta'minlaydi. Hududiy klasterlar esa turistik mahsulotlarni shakllantirish, xizmatlar zanjirini muvofiqlashtirish va mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish bilan shug'ullanadi. Monitoring natijalari asosida klasterlar faoliyatidagi takomillashtirish zarur bo'lgan jihatlar aniqlanib, keyingi rivojlanish choralari belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning Sayohat va turizmni rivojlantirish indeksida 2019-yilgi qayta hisoblangan 94-o'rindan 2024-yilda 78-o'ringa ko'tarilishi mamlakatning xalqaro baholashdagi natijalari yaxshilanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, reytingdagi ijobiy o'zgarishlarni barqaror davom ettirish uchun turistik resurslarni iqtisodiy natijalarga aylantiruvchi samarali boshqaruv mexanizmlari zarur.

Turistik klasterlarni rivojlantirishning asosiy vazifasi davlat, xususiy sektor, ilmiy muassasalar va mahalliy jamoalar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali turistik xizmatlarning yaxlit tizimini shakllantirishdan iborat. Bunday yondashuv transport va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaxshilash, raqamli imkoniyatlarni kengaytirish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu asosda O'zbekistonda xalqaro turizm reytinglaridagi mavqeyini yaxshilash va turistik klasterlarni rivojlantirishning integratsiyalashgan mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Ushbu mexanizmning o'ziga xosligi xalqaro reytinglarda baholanadigan ko'rsatkichlarni hududiy klasterlarning aniq vazifalari, mas'ul subyektlari va o'lchanadigan natijalari bilan bog'lashdan iborat. Bu yondashuv reytingdagi o'rinni yaxshilashga ko'maklashishi bilan birga, turizmni boshqarishda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va mavjud salohiyatdan samarali foydalanish uchun asos yaratadi.

Turizm sohasidagi xalqaro reytinglarda O'zbekistonning mavqeyini yaxshilash turistik klasterlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun mamlakatning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, transport va turistik infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Shahrisabz kabi turistik markazlarni o'zaro bog'langan klasterlar asosida rivojlantirish orqali sayyohlar uchun kompleks turistik mahsulotlar yaratish, ularning mamlakatda bo'lish muddatini uzaytirish va turistik xizmatlar eksportini oshirish mumkin[17]. Bunda O'zbekistonning xalqaro turizm reytinglaridagi natijalarini muntazam tahlil qilish, takomillashtirish zarur bo'lgan jihatlarni aniqlash va ular bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Морозова Н.С. Теория и методология формирования и развития конкуренции в туризме. 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Сочи – 2012. 46 с.
2. Blanke J., Chiesa T. (eds.). The Travel & Tourism Competitiveness Report 2007 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2007. – PDF. – Murojaat sanasi: 04.03.2009.
3. Blanke J., Chiesa T. (eds.). The Travel & Tourism Competitiveness Report 2008 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2008. – PDF. – Murojaat sanasi: 04.03.2009.
4. Blanke J., Chiesa T. (eds.). The Travel & Tourism Competitiveness Report 2009 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2009. – Murojaat sanasi: 04.03.2019.
5. The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2017. – April. – PDF.
6. The Travel & Tourism Competitiveness Report 2019 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2019. – September.
7. Travel and Tourism Competitiveness Report [Elektron resurs] // Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Travel_and_Tourism_Competitiveness_Report.
8. Travel & Tourism Development Index 2021: Rebuilding for a Sustainable and Resilient Future [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2022. – May. – PDF.
9. World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2024. – URL: https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/.
10. World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024: Appendix A — Index Methodology [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2024. – URL: https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/appendix-a-e8e28f48c4/.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Socio-Economic Situation of the Republic of Uzbekistan: Tourist Flows, January–December 2025 [Elektron resurs]. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. –

17 World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024. Geneva: World Economic Forum, 2024. — URL: https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/ (мурожаат қилинган сана: 18.10.2026).

URL: https://stat.uz/.
12. World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2026 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2026. – URL: https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2026/.
13. World Economic Forum. Travel & Tourism Development Index 2024 [Elektron resurs]. – Geneva : World Economic Forum, 2024. – URL: https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/ .

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100